

2-TOM, 5-SON

O'RTA OSIYO XALQLARINING MUSIQA IJODI.

Qo'shayev Ilhom Axtamovich

BDPI musiqa va tasviriy san'at kafedrası o'qituvchisi

Nematova Maftuna Ismatullo qizi

BDPI musiqa va tasviriy san'at kafedrası 1-MUZ-22 guruh talabasi

Annotasiya

Maqolada O'rta osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikdan boshlanishi, va bular o'tiroq dehqonlar (sugdiylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar) hamda ko'chmanchi (saklar, massagetlar va boshqa) qabilalar haqida kengroq fikrlar keltirilgan. Ular haqidagi ma'lumotlar Avestada ham uchrashi va musiqa san'atining boshlanishi o'sha davrlarga borib taqalishi. Avesta kitobi va boshqa qadimgi yozma yodgorliklar, shuningdek, o'rta osiyo xalqlarining revolyut siyagacha bo'lgan turmushi, ularning urf-odatları, to'y-tomoshalari haqidagi ma'lumotlar keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: So'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, sozandalar, saklar, navro'z massagetlar, shohnoma, nay, ud, doira, do'mbira, Afrosiyob, Mavr, sharqshunos, Barbad, Xisrav, Isfahoniy, Musadjik.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega, ko'pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan xalq hamda ogzaki an'anadagi professional musiqa san'ati bu haqda guvohlik beradi. Moddiy madaniyat yodgorliklarining tasdiqlashicha, bugungi O'zbekiston hududida o'rta osiyo xalqlarining ajdodları yaratgan qadimgi sivilizatsiya mavjud bo'lgan. Arxeologiya ma'lumotları, tasviriy san'at asarlari (sharq poetik ijodiyoti asarlarida tasvirlangan miniatyuralar), o'zbek sharqshunoslarining yangi tadqiqotları va, nihoyat o'rta asrdagi o'rta osiyo olimlarining musiqiy risolalari tarjimai o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

O'zbek xalqi ajdodlarining musiqa sarchashmalari o'rta osiyo territoriyasida yashagan qardosh xalqlar, birinchi navbatda tojik xalqi ijodi bilan mustahkam bog'langan. Bu musiqa asarlari X-XI asrgacha (ya'ni bu xalqlar aktiv chegaralanganlarigacha) o'zida bir butunlikni ifoda etdi, keyinchalik u O'zbek va Tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiy asos bo'lib xizmat qildi.



2-TOM, 5-SON

O'rta osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikdan boshlanadi. Bular o'tiroq dehqonlar (so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar) hamda ko'chmanchi (saklar, massagetlar va boshqa) qabilalar edi. Ular haqidagi ma'lumotlar Avestada ham uchraydi. Xalq poetik va musiqa san'atining boshlanishi o'sha davrlarga borib taqaladi. Xalq poetik va musiqa san'ati dastlab sinkretik holatda bo'lgani to'g'risida Avesta kitobi va boshqa qadimgi yozma yodgorliklar, shuningdek, o'rta osiyo xalqlarining revolyut siyagacha bo'lgan turmushi, ularning urfodatleri, to'y-tomoshalarining arxaik elementleri guvohlik beradi. Buni arxeologiya, etnografiya va boshqa fanlar bergan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Sinsiz jamiyat sharoitida o'rta osiyoda musiqa asboblarining asosiy ya'ni urib chalinadigan, puflab chalinadigan va torli sozlar turlari vujudga kelgan edi.

Urug'chilik jamiyatining yemirilishi va sinfiy jamiyatga o'tish, Baqtriya, Sug'diyona va Xorazmda davlatlarning paydo bo'lishi, harbiy ma'muriy jihatdan birlashuvlari, Aleksandr Makedonskiy davlati, Grek-baqtriya podsholigining vujudga kelishi eramizdan oldingi VII asrdan to eramizning IV asrigacha bo'lgan juda katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Bu davr epik xarakterli mifologik qahramonlik ustun bo'lgan qadimgi og'zaki musiqali poetik ijodning yuzaga kelishi bilan mashhurdir.

Qahramonlik afsonalari, epik qo'shiqlar o'rta osiyo xalqlarining o'z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo'yoqdor tasvirlari bilan to'la. O'z xalqining ozodligi yo'lida jonini qurbon qilgan cho'pon Shiroqning mislsiz jasorati, vatanga bo'lgan muhabbati to'g'risida hikoya qiluvchi afsonalaridan parchalar bizning kunlarimizgacha saqlanib kelgan. Masalan, Rustam va uning janglari, malika Taxminaga bo'lgan muhabbati, tanimagan otasi qo'lida qatl qilingan o'g'li Suxrobning o'limi to'g'risida hikoya qiluvchi qo'shiqlar mustaqil marosim tomoshalariga aylanib ketgan. Keyinchalik bu qo'shiqlar tojik xalqining ajoyib eposi «Shohnoma»da o'z aksini topdi. Rustam, Siyovush va boshqa bahodirlar to'g'risida afsonalar turkumi yaratildi.

Xudolarga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan turli xil marosimlarda ham qo'shiq aytilgan. Bu haqda Avestada bayon qilingan. Avesta gimnlarining o'zi rechitativ tarzida ijro etilgan. Gimnlar xor bo'lib aytish mumkin bo'lgan band va takrorlanuvchi naqoratli yarim nasriy, yarim rivoyatlardan iborat vaznli bo'lgan. Xudolarga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan marosimlarda muqaddas olov atrofida qo'shiq aytilgan, raqs tushilgan.

Xalqning bayram marosimlari, masalan: bahorda kun va tunning baravarlashuvi Navro'z keng tarqalgan edi. O'rta asr yozuvchilari muzikaning mehnat marosimlaridagi roli, insonning muzikani olam tuzilishi bilan, tabiatdagi o'lish va tirilish haqidagi miflar bilan bog'lashga bo'lgan intilishlarini ham ko'rsatib o'tganlar. Urta Osiyoning yirik davlatlari



2-TOM, 5-SON

territoriyasida vujudga kelgan zo'rvonlikning mustahkamlanishi ularni atrofdagi davlatlar bilan yanada yaqinlashtirdi: O'rta osiyo Aleksandr Makedonskiy davlati ro'yxatiga, keyinchalik esa Grek-baqtriya podsholigi sostaviga kirgan edi. O'rta osiyo tarixida antik deb nomlangan bu davr (eramizdan oldingi IV asrdan eramizning III asrigacha) madaniyatda aks ettirilgan. Grek muzika asboblarning tasviri saqlanib qolgan. Qadimgi o'rta osiyodagi antik madaniyatning ko'pgina xususiyatlarini aniqlagan holda sovet sharqshunoslari uni bilishning o'ziga xosligini, aytaylik musiqa asboblari (nay, ud, doira) sof mahalliy xususiyatlar mavjudligini ko'rsatib berdilar.

Mahalliy ana'analar yunon, hind va boshqa ana'analar bilan chatishib ketishi sozlarda ham aks etgani o'sha davr madaniyatining o'ziga xos xarakterda bo'lganini nazarda tutadi. Garchi Gresiyaning o'rta osiyo musiqa madaniyatiga ta'sirini o'rta asrdagi o'rta osiyolik olimlarning musiqaga ond risolalarida uchratish mumkin bo'lsa ham, vaqtlar o'tishi bilan bu ta'sir yo'qola bordi.

Kichik terrakotiv haykaltaroshlik o'rta osiyo antik madaniyatining yorqin yodgorligi hisoblanadi. Afrosiyob (qadimgi Samarqand shahrining o'rnini) dan topilgan ko'pgina haykalchalarda aksariyat nay, ud, dopra chalayotgan sozandalar tasvirlangan. Ko'plab topilgan haykalchalar musiqaning sug'dlar va ularning poy-

taxti bo'lgan Samarqand hayotidagi ahamiyati to'g'risida guvohlik beradi. O'zbek klassik adabiyoti asarlarida qayta-qayta ta'kidlanganidek, Xorazm musiqasi ham boy va rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Eramizning IV asridan boshlab o'rta osiyoda quldorchilik asta-sekin feodal tuzum bilan almashdi. O'rta osiyoda yashagan turklar o'z davlatining so'nggi qismini hoqonlik deb atay boshladilar. Ana shu vaqtdan boshlab turklar bilan mahalliy Sharqiy Eron xalqlarining qo'shib yashash jarayoni boshlanadi. IV-VII asrlargacha bo'lgan davr madaniyat va san'at turlarining, jumladan musiqaning yuqori darajada rivojlangani bilan xarakterlanadi.

Butun Sharqqa mashhur bo'lgan va keyinchalik Sharq adabiyoti klassiklari asarlarida tasvirlangan o'rta osiyoning yirik sozanda va xonandasi, o'nlab kuylar ijodkori Barbad (yoki Faxlobod) ning nomi mashhur bo'ldi. Mavr (Turkmaniston SSR dagi hozirgi Mari) shahrida istiqomat qilgan Barbad VII asr boshlarida Eron sostoniyalari sulolasidan bo'lgan Xisrav saroyida xizmat qildi. Tarixchilar bergan ma'lumotlardan ma'lumki, Barbad madhiya va tarixiy qo'shiqlar, harbiy g'alabalar to'g'risida qo'shiqlar ijod etgan. Ozarbayjon adabiyotining klassigi Nizomiy «Xisrav va Shirin» dostonida Barbadning san'at shinavandalariga favqulodda kuchli ta'siri to'g'risida yozgan.

Tasviriy san'atning ko'p sonli obidalari mazkur davrning qurollari va musiqa ishtirokidagi urf-odatlar to'g'risida ma'lumotlar beradi. Qadimgi Panjikentdan topilgan



2-TOM, 5-SON

yorqin naqshlar ana shular jumlasidandir. Unda ikki tomonli nog'ora va doira jo'rligida raqsli sahna, sopol idishda dafn marosimida ayol kishining marosim raqsini ijro etib turgan payti gavdalantirilgan yorqin tasvir uchraydi. Kumush laganga ov manzarasi, ashula va raqs ishtirokidagi ziyofat naqshlangan.

Mahalliy aholi turklarning musiqa hayotining ba'zi elementlarini meros qilib olganlar. Keyinchalik «Kitobi Ko'rqt» 2 qisimga kirgan ko'pgina epik turk afsonalari o'rta osiyo xalqlarida eposning shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, xalq ijodi va mahalliy professional an'ana kelajakda og'zaki an'anadagi yirik professional asarlar tug'ilishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ayrim keng tarqalgan maqom kuy tuzilmalarining turkcha, masalan, «Avji turk» deb atalishi ham bejiz emas. Ehtimol, vafot etgan kishining jasadi tepasida turib maxsus aytuvchilar tomonidan deklamasyon xarakterda marsiya aytib yig'lash odati qadimgi turk qabilalaridan qolgandir. Ehtimol, o'zbek baxshilari turk xalq xonanda-azonchilarining ijodiga mansub ifoda uslublaridan foydalangandir, zeroki buni o'zbek folklorining rang-barangligi, uning kuy, lad va ayniqsa, ritmik tuzilishida ko'rish mumkin.

Shunday qilib, VII - VIII asrlarga kelib mahalliy musiqa an'analari aniq bo'lib qoldi, xalq va professional musiqaning og'zaki an'analari shakli vujudga keldi.

Arablar hukmronligi davri (VIII — IX asrlar) tarixda islom dinini majburan qabul qildirish va mahalliy xalqlarning to'xtovsiz qo'zg'olonlari bilan joy oldi. Bu qo'zg'olonlar aholining mehnatkash tabaqalari manfaatlarini ifodalovchi Muqanna rahbarligida «oq kiyimlilar» nomi bilan mashhur bo'lgan juda katta xalq harakati (785 yil) ga turtki bo'ldi. Mahalliy ziyolilar ham arab bosqinchilariga bo'lgan munosabatini yashirin oppozisiyada bayon qildilar. Ular o'zlarining arab tilida yaratgan ilmiy ishlarida arablar tazyiqidagi xalqlarning ustun madaniyatga ega ekanligini ta'kidladilar. Shuubiylar arablarning islomgacha bo'lgan ibtidoiy madaniyatlariga o'zlarining qadimgi madaniyatlarini qarama-qarshi qo'ydilar. Shuubiylar she'riyatida xalqning navro'z, mehrjon (hosil bayrami), sada (bahorga o'tish, yanvar-fevral) an'anaviy bayramlari kuylandi. Xalq xotirasida bu bayramlar epik dostonlarning qahramonlari bilan boglanar edi.

Islom dini dastlab muzikani yo'qotish, man etishga urindi. Biroq, musulmon ruhoniylari xalq ommasini zarur tomonga boshqarishda musiqaning qudratli qurol sifatida qanday rol o'ynashini tushunar edilar. Shuning uchun ham musiqaga din doirasida yo'l berdilar, ammo dunyoviy musiqaga qarshi chiqdilar. Musiqadan foydalanish faqat bir sohadagina, ya'ni fanatik darvishlarning to'jazavasi tutib qolishgacha olib keluvchi diniy zikr tushishlari bilan chegaralangan edi. Urta Osiyoning arab xalifaligiga qo'shib olinishi ma'lum darajada ijobiy ahamiyatga ham ega edi.



2-TOM, 5-SON

Arablar o'z navbatida musiqa san'ati sohasida mahalliy aholidan ko'pgina narsalarni o'rganib oldilar. A. Isfahoniyni arab tilida yozilgan «Qo'shiqlar kitobi»ga ko'ra juda ko'p o'rta osiyo kuylaridan arablar foydalangan. Masalan, Musadjik nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi arab qo'shiqchisi o'rta osiyoda (boshqa mamlakatlar qatori) ham bo'lib, turli xil kuylarni tanlab oldi va ular zaminida qo'shiqlar ijrosi sistemasini yaratdi. Boshqa bir qo'shiqchi Ibn Muhriz esa birinchi bo'lib Urta osnyolik qo'shiqchilardan o'rgangan holda arab baytlarini ijro eta boshladi.

Al Forobiy turli xil asboblarda tovush qatorlarini o'rgana borib, Xuroson tanburiga alohida e'tibor berganining o'zi ham mahalliy musiqa asboblarning ahamiyati katta ekanligidan guvohlik beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi 2018 yil 1 noyabrda PQ-3990-son qarori.

2. «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 22 noyabrda 946-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. O'zbekiston ovozi 2019-yil, 8- aprel. № 28-29 (32. 519).

4. Akhtamovich K. I. the content of education aimed at methodological improvement of the study of traditional musical heritage *Academicia Globe: International Science Research* 2022—T.3 №.01—C.13-15.

5. Кушаев И. А. Педагогико-методические условия изучения традиционного музыкального наследия в образовании // *Science and Education*. 2022. Т. 3. - № 1. - С. 893-898.

6. Кушаев.И.А. Ахтамов.И.И «Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)» *ACADEMY научно-методический журнал ноябрь-2020* Ст. 59-62,

7. Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана» *ACADEMY научно-методический журнал №3(66)2021*

8. IA.Kushayev «Musical pedagogical fundamentals of doston art» *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 2020/10/10. 1061-1067

9. Qo'shayev I.A. «Baxshichilik festivallarining musiqiy ta'limdagi o'rni» *МУҒАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалык журнал* 2023 5/3 сан Нокис *noyabr* В.233-238.



2-TOM, 5-SON

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]**

Kushayev Ixom Axtamovich, o'qituvchi, **Nematova Maftuna Ismatullo qizi**, talaba

[**Кушаев Илхом Ахтамович**, преподаватель **Нематова Мафтуна Исматулло кизи** студентка], [**Ixom A. Kushayev**, teacher, **Maftuna I. Nematova**, student]; manzil: O'zbekiston, 117036, Buxoro, Sherbudin ko'chasi, 2-muyilish 4-xoha [адрес: Узбекистан, 117036, Бухара, улица Шербудин проезд-2. дом-4], [address: Uzbekistan, 117036, Bukhara, Sherbudin street passage-2.house-4.]; ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-9092-5020>; kushaev.1968@gmail.com

manzil: O'zbekiston, 117036, Navoiy viloyati, Uchquduq tumani, xalqlar do'stligi ko'chasi, 22-uy 42-xoha [адрес: Узбекистан, 117036, Навоийская область, Учкудукский район, ул. Дружбы народов, 22- дом 42-кв.], [address: Uzbekistan, 117036, Navoi region, Uchkuduksky district, Druzhby narodov str, 22-house 42-apartment.]; ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-7250-4588>; maftunanematova19@gmail.com

